

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Xazratkulova Shoira Noraliyevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi

shoiraxazratkulova@gmail.com

Tojiyeva Dilnoza Pardayevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida milliy tarbiyani shakllantirishning dolzarbligi va zarurati yoritilgan. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analarni o‘quvchilarga singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tutgan o‘rni tahlil etilgan. Mualliflar ta‘lim jarayonida milliy tarbiya elementlarini zamonaviy yondashuvlar – innovatsion metodlar, interfaol usullar, hamkorlikda o‘qitish va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydilar.

Shuningdek, o‘qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni Vatanga sodiqlik, qadriyatlarni qadrlash va milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalovchi sifatida tutgan o‘rni ochib beriladi. Maqolada milliy bayramlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, turli innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, milliy tarbiya, zamonaviylik, globallashuv, madaniyat, pedagogika, motivatsiya, texnologiya milliy bayramlar, boshlang‘ich ta‘lim.

Yosh avlod — millatning ertangi kuni. Ularning dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi va vatanparvarlik tuyg‘ulari eng avvalo maktab ostonasida, xususan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida shakllanadi. Demak, bu davrda bolalarga berilayotgan bilim bilan birga, milliy tarbiyaning chuqur ildiz otishi — jamiyatimiz kelajagi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv, internet, zamonaviy madaniyat bosimi ortib borar ekan, milliy qadriyatlarimizni asrash va uni yosh avlod qalbiga singdirish har qachongidan ham muhim. Bu jarayonda oddiy nasihat yoki yodlashga asoslangan dars shakllari endi yetarli emas. Zamon taqozosi — pedagogik texnologiyalarni darslarga jalb etish orqali

bolalarda milliy gʻurur, qadriyatga sadoqat va Vatanga muhabbat tuygʻularini uygʻotishdir.

Bugungi oʻqituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki motivator, yoʻl koʻrsatuvchi, hatto bolalarning ichki olamini ochishga qodir ijodkor boʻlishi kerak. Xoʻsh, qanday qilib? Javob oddiy: zamonaviy texnologiyalar yordamida. Misol uchun, milliy bayramlar yoki xalq ogʻzaki ijod namunalari asosida interfaol usullar orqali dars oʻtkazish. Bolalar “Navroʻz qanday bayram?”, “Mahallamizda qanday udumlar bor?”, “Ona Vatan deganda nimalarni tushunasiz?” kabi savollarga guruh boʻlib fikr almashadi, muhokama qiladi. Klaster, insert, aqliy hujum kabi usullar orqali ular fikrini ochiq bayon qiladi, eshitishni, tushunishni va hurmat qilishni oʻrganadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda bolalarga milliy kuylar, xalq oʻyinlari, tarixiy joylar haqida videoroliklar, taqdimotlar namoyish etilsa bu ularning eʼtiborini tortadi, darsga qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, bola koʻrganini tezroq eslab qoladi, his qilganini esa butun umri davomida yodida saqlaydi.

Loyihaviy yondashuvlar ham natijali hisoblanadi. Masalan, “Mening oila urf-odatlarim” yoki “Mahallamiz qadriyatlari” kabi kichik topshiriqlar orqali oʻquvchi oʻz yaqinlarini suhbatga tortadi, mahalladoshlar bilan muloqot qiladi, oʻrganadi, oʻrganibgina qolmay, boshqalarga aytadi. Mana shunday yondashuvlar bilan tarbiya hayotga kirib boradi. Shuni unutmaslik kerakki, bugun bolaning ongi uchun kurash ketmoqda bu kurashda biz yutqazishga haqqimiz yoʻq. Shuning uchun ham har bir pedagog, har bir ota-ona, har bir jamiyat aʼzosi yosh avlodga milliylikni, tarixiy oʻzligini, maʼnaviy poklikni singdirish yoʻlida zamonaviy, ammo ildizi qadimiy qadriyatlarga suyanadigan yondashuvni tanlashi zarur.

Bugun boshlangan har bir milliy tarbiya darsi ertangi mustahkam jamiyat, barqaror kelajak, oʻz ildiziga suyanadigan, ammo zamon bilan hamnafas yurt farzandlarini tarbiyalash demakdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar — bu vosita. Maqsad esa aniq, milliy qadriyatlarimizni avlodlar ongiga uygʻunlik bilan singdirish. Ana shundagina biz orzu qilayotgan maʼnaviyatli jamiyatga erishamiz. Milliy tarbiya har qanday xalqning maʼnaviy-maʼrifiy merosi va kelajak taraqqiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashtirish jarayonida yosh avlod qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni maʼnaviy barkamol, Vatanga sodiq shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb boʻlib bormoqda. Shu bois boshlangʻich taʼlim tizimida milliy tarbiyaga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yondashish zarurdir.

Boshlangʻich taʼlimda milliy tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish bugungi kunning muhim talabidir. Milliy qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish nafaqat ularning maʼnaviy barkamolligini taʼminlaydi, balki jamiyatning

kelajak taraqqiyotini ham kafolatlaydi. Zero, milliy tarbiyaga tayangan yosh avlod global maydonda o'zligini yo'qotmagan, raqobatbardosh va Vatanga sodiq shaxs sifatida voyaga etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqishma-bosqish amaliyotga joriy etish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori. -8 b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" HMUY, 2017.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2017. I TOM.
5. Mirziyoyev Sh. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2018. II TOM.
6. Mirziyoyev Sh. Erkin vafaravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2018.
7. Abduxamidov, S.M., & Shadiyev, A.Y. (2020). Milliy qadriyatlar qadr topgan maskan. Maktab va hayot, 2(1), 25-26.
8. Khazratkulova Shoir Noralievna. (2022). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN EDUCATION OF STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 8(2), 123–126. Retrieved from
9. Sh. N. Khazratkulova. (2023). EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS. Academia Science Repository, 4(04), 644–646. Retrieved from
10. Xazratkulova, S., & Abdiraxmonov, S. (2023). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).
11. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.
12. Sh.N.Xazratkulova "Boshlang'ich sinflarda tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar" Zamonaviy boshlang'ich

ta'lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Tom 2 № 1 (2023) 855-859-c.

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/issue/view/14>